

**BUGUNGI KUNDA IJTIMOYIY TARMOQLARNING INSONIYAT HAYOTIDA
TUTGAN O'RNI**

Nasriddinova Sarvinoz G'ayrat qizi
Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi
Iskandarova Nilufar Toxirovna
Ilmiy rahbar

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning insonlar hayotidagi ahamiyati, tutgan o'rni, ularning insoniyat hayoti uchun ijobiy va salbiy tomonlari haqida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy tarmoqlar, Instagram, Telegram, Facebook, you tube, ijtimoiy globallashuv, ijtimoiy eksperiment, trend darajasidagi kasblar, mobilografiya, targetolog.*

Hammamizga ma'lumki, ijtimoiy tarmoqlar keskin rivojlanib bormoqda. Va shuning natijasida, zamonaviy ijtimoiy tarmoqlar insonlar hayotimning har bir jabhasiga kirib borib, ózining mustahkam o'rnini egallashga ulgurdi.

Hozirgi kunda butun dunyo bo'ylab ijtimoiy tarmoqlarning globallashuvining guvohi bólib turibmiz. Bu holatni nimalarda ko'rishimiz mumkin? Buni dunyoning deyarli har bir insonni foydalanayotganidan yaqqol sezishimiz mumkin.

Hech kimga emaski, insoniyat hayotiga ham ijobiy ham salbiy ta'sirlari bor. Xususan, you tube, instagram, telegram kabi platformalar orqali onlayn o'quv darslarga qatnashish, elektron kitoblarni istalgan vaqtda, istalgan joyda o'qishimiz mumkin. Til o'rganuvchilar, misol uchun ielts yoki yapon, koreys tilidan sertifikat olishni xohlovchilar til darslarining barcha mashg'ulotlarini óz uylarida o'tirib bajarishlari hamda uydaligi holatlarida óz ustilarida ishlash imkoniyatiga ega hisoblanadi. Bundan tashqari, bu tarmoqlar orqali biz, ya'ni hamma insonlar dunyoqarashni o'stiradigan, ongni kengaytiradigan filmlar tomosha qilishimiz mumkin. Hozirgi kunda ommalashgan, trend darajasiga chiqqan kasblar: smm menejerlik, mobilografiya, targetolog, dasturchilik va shunga o'xshash kasblarni uyda o'tirgan holda o'rganib, uyda o'tirib, biznes qilib, daromad topa olish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Menimcha, bu eng qiziqarli afzalliklaridan biri. Ijtimoiy tarmoqlar va mobil texnologiyalarning insonlar hayotiga ijobiy ta'sirlari talaygina. Albatta biz ulardan to'g'ri maqsadda, oqilona yo'lda, usulda foydalansak, ular bizga faqat foyda keltiradi. Hatto biz o'ylaganimizdan ham ko'p.

Ammo masalaning boshqa tomoni ham bor! Mening fikrimcha, 2020-yillarda karantin davri bo'lgan paytlari butun dunyo aholisi orasida telefon va ijtimoiy tarmoqlar: Facebook, TikTok, Instagram, telegramlardan foydalanish avjiga chiqqan edi. Aynan o'sha paytlarda yuqorida keltirgan tarmoqlarda har xil óyin,

"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"

videolar, shoular va hokazolarni tashkil qilish, qatnashish odamlarning ko'ngilochar mashg'ulotlari hamda hobbi darajasiga ko'tarilib boshlagan edi va hozirga kelib eng cho'qqisiga chiqmoqda. Bular, albatta, karatinda insonlarning vaqtizni yaxshi o'tkazish uchun yordam berish maqsadida tashkil qilingan. Lekin hozirda ko'pchilik ushbu tarmoqlarda vaqtini bekorga sarflamoqda. Har xil ma'nosiz vaynlar va boshqalar joylanmoqda u yerga. Buning orqasidan boshqalar ham vayn olishga taqlid qilishmoqda, dunyoviy, diniy bilimlar o'rganish o'rniga. Umuman olganda, bugungi kunda, odamlar 24 soat vaqtlarining teng yarmini telefon uchun sarflashmoqda. Buning oqibatida, ko'plab munosabatlar buzilmoqda, insonlar sog'ligida salbiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda.

Odamlarning ijtimoiy tarmoqlarda qancha vaqt sarflashlarini bilish uchun hamda ularning vaqtini to'g'ri rejimga solish uchun bir nechta eksperimentlar o'tkazilgan. Xususan, men yaqinda you tube orqali Kunduziy taxallusi bilan ijod qiladigan bolgerning eksperimentini ko'rib qoldim. Unda bor hafta davomida telefon, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmaslik hamda kimyoviy moddalari ko'p bo'lgan mahsulotlar va shakar miqdori ko'p bo'lgan mahsulotlarni yemaslik kerak edi. U buni o'zida sinab ko'rgan. Va uddalagan. Men ham uni ko'rib ilhomlanib ketib, uning eksperimentini sinab ko'rdim. Sababi men ham ko'p vaqtimni Instagram va telegramga sarflar edim. Lekin men faqat ijtimoiy tarmoqlarga kirmaslikni sinab ko'rdim, ovqat masalasiga tegmadim. Men ham bir hafta davomida ijtimoiy tarmoqlardan uzildim. Shu vaqt mobaynida sevimli mashg'ulotlarimga, sevimli kitoblarimni o'qishga, ko'proq dars qilishga va kundalik yumushlar uchun ham ko'proq vaqt ajrata olishga muvaffaq bo'ldim. Va bir kun davomida doimgidanda ko'p narsalarga ulgura oldim.

Xulosa qilib shuni ayta olamanki, har bir narsaning ham yaxshi, ham yomon tomonlari bor. Qaysi tomonidan foydalanish esa bizning o'zimizga havola! Shunday ekan, hamma narsadan to'g'ri va oqilona foydalanaylik. Zero, ular bizga faqat foyda keltirsin.